

## PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONLARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY JIXATLARI

**Jo‘raboyeva Dilobarxon Sherah qizi,**

*Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

*G-mail: [dilobarjurabaeva5@gmail.com](mailto:dilobarjurabaeva5@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogik amaliyot jarayonlarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik faoliyat davomida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, innovatsion metodlardan foydalanish hamda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik amaliyot, kasbiy kompetentlik, pedagogik faoliyat, innovatsion metodlar, amaliy ko‘nikma, ta‘lim jarayoni, pedagogik mahorat.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы практические аспекты развития профессиональной компетентности будущих педагогов в процессе педагогической практики. Также освещены вопросы интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, использования инновационных методов и формирования профессиональных навыков.

**Ключевые слова:** педагогическая практика, профессиональная компетентность, педагогическая деятельность, инновационные методы, практические навыки, образовательный процесс, педагогическое мастерство.

**Abstract.** This article analyzes the practical aspects of developing professional competence in future teachers during pedagogical practice. It also highlights the integration of theoretical knowledge with practical activity, the use of innovative methods, and the formation of professional skills.

**Keywords:** pedagogical practice, professional competence, pedagogical activity, innovative methods, practical skills, educational process, pedagogical mastery.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash har bir davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi ta‘lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni shakllantiruvchi, innovatsion yondashuvlarni qo‘llovchi hamda ta‘lim jarayonini boshqaruvchi mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimini isloh qilish, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish va ularning amaliy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta‘lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlarida pedagog kadrlarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimini shakllantirish vazifalari alohida ta‘kidlab o‘tilgan.[1] Bu esa pedagogik amaliyot jarayonlarining mazmunini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltiradi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda eng muhim omil bu – sifatli ta‘lim va malakali kadrlar tayyorlashdir”.[2] Ushbu fikr ta‘lim tizimida pedagoglarning o‘rni naqadar muhim ekanligini, ularning kasbiy kompetentligi

esa jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu boisdan ham pedagogik amaliyot jarayonlarida bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish, mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi pedagogning bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy sifatlar hamda pedagogik tajribani integratsiyalashgan holda amaliy faoliyatda samarali qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagogik amaliyot esa ushbu kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim bosqichi sifatida xizmat qiladi. Chunki aynan amaliyot jarayonida talaba real ta'lim muhitiga kirib boradi, o'quvchilar bilan ishlash tajribasini egallaydi hamda kasbiy faoliyatga moslashadi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlardan foydalanish va raqamli ta'lim muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa pedagoglardan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikni, ijodkorlikni hamda zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik amaliyot jarayonlarini samarali tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.[3]

Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi davlat siyosatida pedagog kadrlarning malakasini oshirish, ularning kasbiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash hamda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim tizimini shakllantirishga doir muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlar pedagogik ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlashga xizmat qilmoqda.[4]

Xulosa qilib aytganda, pedagogik amaliyot jarayonlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Shu sababli mazkur maqolada pedagogik amaliyot jarayonlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy jihatlari, metodlari va samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Kasbiy kompetentlik muammosi zamonaviy pedagogika fanida eng ko'p o'rganilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha pedagogning kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, shaxsiy sifatlari va pedagogik tajribasini integratsiyalashgan holda ta'lim jarayonida samarali qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari keng yoritilgan. Jumladan, D. Shon pedagogik faoliyatda reflektiv amaliyot muhimligini ta'kidlab, o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish orqali rivojlanishini asoslab bergan.[5] L.S.Vygotskiy esa ijtimoiy-madaniy yondashuv doirasida kompetensiyalar ijtimoiy muhit va hamkorlik jarayonida shakllanishini ilmiy jihatdan asoslagan.[6] Shuningdek, J.Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasida shaxsning bilim va ko'nikmalari bosqichma-bosqich shakllanishini ko'rsatib bergan.[7]

Kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim tizimiga tatbiq etishda R. Boyatzis tomonidan ishlab chiqilgan "kasbiy kompetentlik modeli" ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda shaxsiy motivatsiya, bilim va amaliy ko'nikmalar integratsiyasi asosiy omil sifatida ko'rsatiladi.[8]

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham pedagogik amaliyot kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Xususan, N. Musayeva pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchining nazariy bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda qo'llash imkonini berishini ta'kidlaydi.[9] Shuningdek, A. Karimov pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligida amaliy faoliyatning ustuvorligini asoslab, kompetensiyalar aynan amaliy jarayonda shakllanishini ko'rsatadi.[10]

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident farmon va qarorlarida pedagog kadrlarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish, innovatsion metodlarni joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish vazifalari belgilangan.[11] Shuningdek, Sh.M. Mirziyoyev ta'lim sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlashni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rsatadi.[2]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar va reflektiv yondashuv pedagogik amaliyot samaradorligini oshiradi hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tezlashtiradi.

Mazkur tadqiqotda pedagogik amaliyot jarayonlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammosini o'rganish uchun tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Nazariy metodlar: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish orqali xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari o'rganildi.

2. Empirik metodlar: kuzatish, suhbat va so'rovnoma metodlari yordamida pedagogik amaliyot jarayonida talabalar faoliyati tahlil qilindi.

3. Tajriba-sinov metodi: innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi amaliy jihatdan sinovdan o'tkazildi.

4. Statistik tahlil metodi: olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan qayta ishlanib, solishtirma tahlil asosida xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning amaliy bazasi sifatida oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan pedagogik amaliyot jarayonlari tanlab olindi.

**Tahlillar va natijalar.** Tadqiqot doirasida pedagogik amaliyot jarayonlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish holati nazariy va empirik jihatdan o'rganildi. Olib borilgan kuzatishlar, so'rovnomalardan va tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik

amaliyot bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda hal qiluvchi bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari Farg'ona davlat universitetida pedagogik amaliyotga jalb etilgan talabalar ishtirokida amalga oshirildi. Dastlabki bosqichda talabalar faqat nazariy bilimlarga tayangan holda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda qiyinchilikka duch kelishlari kuzatildi. Ularning ko'pchiligida darsni rejalashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'quvchilar bilan kommunikativ aloqani yo'lga qo'yish hamda interfaol metodlarni qo'llash bo'yicha yetarli amaliy tajriba shakllanmaganligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar ("aqliy hujum", "klaster", "insert", "kichik guruhlarda ishlash") hamda reflektiv yondashuv elementlari amaliyot jarayoniga tatbiq etildi. Natijada talabalar faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Xususan, amaliyot yakunida talabalar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha rivojlanish dinamikasiga ega bo'ldilar:

- a) pedagogik rejalashtirish kompetensiyasi – dars ishlanma tuzish va maqsad qo'yish ko'nikmalari shakllandi;
- b) kommunikativ kompetensiya – o'quvchilar bilan erkin muloqot qilish va sinf boshqaruvi ko'nikmalari rivojlandi;
- c) metodik kompetensiya – zamonaviy o'qitish metodlarini tanlash va qo'llash darajasi oshdi;
- d) reflektiv kompetensiya – o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va xatolar ustida ishlash malakasi shakllandi.

So'rovnomaga natijalariga ko'ra, amaliyotdan oldin talabalarining faqat 38–42% qismi o'zini dars o'tishga tayyor deb hisoblagan bo'lsa, amaliyot yakunida bu ko'rsatkich 78–85% gacha oshgani aniqlandi. Bu esa pedagogik amaliyotning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, reflektiv tahlil asosida ishlash (o'z darsini tahlil qilish, hamkasblar fikrini o'rganish) talabalar kasbiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, guruhli tahlil va mentorlik tizimi joriy etilgan guruhlarda natijalar yuqoriroq bo'lgan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- amaliyotning tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi;
- mentor (ustoz-pedagog) bilan doimiy hamkorlik;
- innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish;
- reflektiv tahlilning muntazam olib borilishi;
- real pedagogik muhitda faol ishtirok etish.

Umuman olganda, olingan natijalar pedagogik amaliyot jarayonlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda eng muhim

amaliy platforma ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish zarurligini ko'rsatib, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga asos bo'ldi.

Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot jarayonlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi murakkab, ko'p omilli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalarni ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil qilish shuni tasdiqlaydiki, kasbiy kompetentlik faqat nazariy bilimlar asosida emas, balki real pedagogik faoliyat va reflektiv amaliyot orqali shakllanadi.

Xorijiy olimlardan D. Shon tomonidan ilgari surilgan reflektiv amaliyot konsepsiyasiga ko'ra, pedagog o'z faoliyatini muntazam tahlil qilishi orqali kasbiy jihatdan rivojlanadi.[5] Tadqiqot natijalari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi, chunki amaliyot davomida refleksiya elementlari (o'z darsini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va tuzatish) joriy etilgan guruhlarda kompetensiya darajasi sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Shuningdek, L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bilim va ko'nikmalar ijtimoiy muhitda, hamkorlik asosida shakllanadi.[6] Tadqiqot davomida guruhli ishlash, mentorlik tizimi va hamkorlikdagi tahlil jarayonlari yo'lga qo'yilganda talabalar kommunikativ va metodik kompetensiyalarining tez rivojlangani kuzatildi. Bu esa Vygotskiy nazariyasining amaliy tasdig'ini beradi.

Mahalliy olimlar A.Karimov va N.Musayeva ishlarida pedagogik amaliyot kasbiy kompetentlikni shakllantirishning asosiy bosqichi sifatida ko'rsatilgan.[9.10] Tadqiqot natijalari ham ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, chunki talabalar aynan amaliyot jarayonida nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash orqali o'z kompetensiyalarini rivojlantirdilar.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosati ham mazkur yo'nalishni qo'llab-quvvatlaydi. Prezident Farmon va Qarorlarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, pedagog kadrlarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish hamda innovatsion metodlarni keng qo'llash zarurligi ta'kidlangan.[1] Tadqiqot natijalari ushbu me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaliyotda o'z tasdig'ini topayotganini ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shundan iborat bo'ldiki, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Interfaol metodlar ("aqliy hujum", "klaster", "insert", "FSMU") qo'llanilgan guruhlarda talabalar faolligi va mustaqil fikrlash darajasi sezilarli darajada oshdi. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonida faol o'qitish metodlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan:

- amaliyot jarayonining ba'zi hollarda yetarli darajada tizimli tashkil etilmasligi;
- mentor-pedagoglar bilan hamkorlikning har doim ham samarali yo'lga qo'yilmaganligi;

- talabalarining reflektiv tahlil ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- nazariya va amaliyot integratsiyasining ayrim holatlarda to'liq ta'minlanmaganligi.

Ushbu muammolar kasbiy kompetentlikni yanada samarali rivojlantirish uchun metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, amaliyot dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish, mentorlik tizimini kuchaytirish hamda reflektiv o'qitish texnologiyalarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, muhokama natijalari pedagogik amaliyot jarayonlari kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda eng muhim va hal qiluvchi bosqich ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Olingan natijalar nazariy qarashlar va amaliy tajriba o'rtasida uyg'unlik mavjudligini ko'rsatib, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligini asoslab berdi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot pedagogik amaliyot jarayonlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlandi. Olib borilgan nazariy tahlil, empirik kuzatishlar va tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, kasbiy kompetentlik pedagogning nafaqat bilim darajasi, balki uning amaliy ko'nikmalari, shaxsiy sifatlari va pedagogik tajribasining integratsiyasi ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu kompetensiya faqat auditoriya sharoitida emas, balki real pedagogik faoliyat – ya'ni pedagogik amaliyot jarayonida shakllanishi va rivojlanishi aniqlandi.

Ikkinchidan, pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda eng muhim bosqichlardan biri ekanligi tasdiqlandi. Amaliyot davomida talabalar nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash, o'quvchilar bilan ishlash, darsni rejalashtirish va boshqarish ko'nikmalarini egalladilar.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, reflektiv yondashuv asosida tashkil etilgan amaliyot jarayonlari talabalar kasbiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

To'rtinchidan, olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, mentorlik tizimi, guruhli hamkorlik, muntazam refleksiya hamda amaliyotning tizimli tashkil etilishi kasbiy kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlanib, ular pedagogik amaliyot jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Xususan, nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, metodik ta'minotni yaxshilash hamda talabalar reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot jarayonlari kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy omili ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Shu sababli, kelgusida pedagog kadrlar tayyorlash tizimida amaliyotga yo'naltirilgan

kompetensiyaviy yondashuvni yanada kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va reflektiv ta'lim muhitini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 256 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2021.
5. Schön D. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
7. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
8. Boyatzis R. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. – New York: Wiley, 1982.
9. Musayeva N. Pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish. – Toshkent, 2020.
10. Karimov A. Pedagog kadrlar tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent, 2019.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2019.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934